

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish  
va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

## TA’LIM JARAYONIDA JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISI FAOLIYATI

**B.G‘.Boyboboyev**  
**Namangan davlat universiteti dotsenti, p.f.n.**  
**U.M.Raxmonov**  
**Shaxrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyati, ta’limning maqsadlari va vazifalari hamda uni amalga oshirish bosqichlari haqida bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** ta’lim, ta’lim maqsadlari, ta’lim bosqichlari, o‘qituvchi faoliyati

Mamlakatimiz ta’lim tizimida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni muvoffaqiyatli amaliyatga tadbiq etish ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi va tarbiyachilarga ko‘p jihatdan bog‘liq., Xozirgi kunda talablariga javob bera oladigan o‘quv uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar yaratilamoqda, izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Global o‘zgarishlar, fan texnika va axborot kommunikatsiya texnologiyalari kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o‘qituvchisidan pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani pedagogik-psixologik bilimlarni, o‘z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va muloxazali bo‘lishni talab qiladi.

O‘qituvchi barkamol avlod ta’lim tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo‘lib, nafaqat ma’naviy axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o‘qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘sishi zarur.

Ta’lim jarayoni – ma’lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini o‘quvchilarning o‘zlashtirishi uchun o‘qitish va o‘qish faoliyatlarining real aloqasi, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta’lim makon va zamonda maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan faoliyatidir.

Ta’limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta’lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma’noni bildiradi, ya’ni ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar xosil qilish ularda dunyoqarash, fikr va e’tiqodlarning shakllantiradi , ularning qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Yosh avlodga ta’lim jarayonida insoniyat tajribasi orqali to‘plangan bilimlar beriladi.Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, u ikki

## Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

tomonlama xarakterga ega, ya’ni, unda ikki tomon o‘qituvchi va o‘quvchi faol ishtirot etadi. O‘qituvchi aniq maqsadni ko‘zlab, reja va dastur asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, o‘quvchi esa uni faol o‘zlashtirib oladi. O‘rgatish, o‘rganish murakkab, qiyin ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixologiyasida tegishli sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirot etadi. Yoshlarga bilim berish ularda qo‘nikma va malakalarni xosil qilish, jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdan iboratdir..

Ta’limda o‘qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham raxbarlik qiladi, o‘quchilarda mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stiradi va shu tariqa o‘rganilayotgan manbaning ongli ravishda o‘zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to‘g‘risida ham g‘amxo‘rlik qiladi. Ta’lim quyidagi maqsadlardan iborat:

1. Ta’limiy maqsad – o‘quv materialining mazmunini bilish, ya’ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olish.
2. Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o‘zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g‘oyalar, dunyoqarashlarida o‘zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e’tiqodlarini shakllantirish.
3. Rivojlantiruvchi maqsad – ta’lim jarayoni ta’sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o‘qishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirish.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o‘quvchi – talabada mustaqil ishslash paydo bo‘ladi. Uni o‘ylashga o‘rgatadi, ta’lim jarayonida tafakkur xukmronlik qiladi.

Bu bog‘liqlikni, avvalo, ta’limni amalga oshirish bosqichlarda ko‘ramiz. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich – o‘quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o‘quvchi talaba ta’limning mazmuni bilan tanishib, o‘zining bilishi nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirot etadi.

Ikkinci boskich – o‘quv materiallarini tushunib oladilar, uning moxiyatini anglaydlar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo‘ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

- Uchinchi bosqich – yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar o‘qituvchining qo‘sishimcha izoxlari orqali mustaxkamlanadi.

To‘rtinchi bosqich – o‘zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiq qiladilar.

## Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish uchun o‘quv jarayonining hamma bosqichlarida o‘qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, o‘qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog‘i sifatida qator vazifalarni bajaradi.

1. O‘quvchi va talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarini xosil qiladi.
2. Ularda dunyoqarash, ishonch va e’tiqodlarini rivojlantiradi.
3. Yoshlarni muayyan darajada o‘qimishli, tarbiyalı kishilar bo‘lib yetishishlariga qobiliyat va istedodlarini o‘stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvoffaqiyatli hal etish uchun o‘qituvchida o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvoffaqiyatli bajarishdir. Bu, avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko‘rinadi. Bundan tashqari o‘qituvchi o‘quvchiga qiziqib qarashi, uning extiyoj va hususiyatlarini tushuna bilish lozim.

O‘qituvchi keng ko‘lamdagи didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida ta’lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi. Barcha tarkibiy qismlarning o‘zaro birligi va yaxlitligi sifatida namoyon bo‘luvchi pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonining negizini o‘qituvchi va talabalarining ta’limiy faoliyatları tashkil etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” O‘zbekiston Respublikasining qonuni T.2023 y
2. Бойбобоев Б. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСЛАРИДА УМУМРИВОЖЛАНТИРУВЧИ МАШКЛАР МЕТОДИКАСИ //Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida universal ta’lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023. – С. 124-125.
3. Бойбобоев Б. Г., Муллабаева М. С. ПРОФЕССИОНАЛЬНО ВАЖНЫЕ КАЧЕСТВА СПОРТИВНОГО ТРЕНЕРА //ПОД. – 2019. – С. 105.
4. Бойбобоев Б. Г. Жисмоний тарбия дарсларида 11-14 ёшли ўғил болалар учун нагрузкани меъёrlаш //Пед. фан. ном. дис. – 1999. – Т. 157.
5. Boyboboyev, B. (2024). Ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining psixologik komponentlari. Scientific-Theoretical Journal of International Education Research, 2(1), 51-54. <https://research-edu.com/index.php/edu/article/view/1226>